

**VALERIANA O‘SIMLIGINI URUG‘ YETISHTIRISH VA DORIVOR  
MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI:  
MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI**

**Jo‘rayeva Vazira Tuychiyevna**

O‘rmonchilik, dorivor o‘simliklar va manzarali bog‘dorchilik kafedrası asisenti

**Qulsoatova Munisa Eshmurod qizi**

Dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlashta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada valeriana dorivor o‘simligining urug‘ yetishtirishdagi xususiyatlari, uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, valeriana ildizi asosida dorivor mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi, ularning tarkibi va farmatsevtik ahamiyati yoritiladi. Maqolada ekologik omillar, agrotexnik tadbirlar va saqlash sharoitlari ham ko‘rib chiqilib, samarali yetishtirish va sifatli dori vositalarini olish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** valeriana, dorivor o‘simlik, urug‘ yetishtirish, agrotexnika, farmatsevtika, dorivor mahsulot, ildiz ekstrakti, tinchlantiruvchi vosita, biologik xususiyatlar, yetishtirish texnologiyasi, ekologik omillar, o‘simlikshunoslik.

**Kirish.**

Tabiat inson salomatligi uchun bebaho manba bo‘lib, uning bag‘rida ko‘plab dorivor o‘simliklar yashaydi. Ular orasida valeriana o‘simligi qadimdan tinchlantiruvchi, uyquni me‘yorga soluvchi va yurak faoliyatini yaxshilovchi tabiiy vosita sifatida keng qo‘llanib kelinmoqda. Bugungi kunda farmatsevtika sohasida valeriana asosida turli xil dorivor preparatlar tayyorlanadi, ularning samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Valeriana ildizi va undan olinadigan ekstraktlar ayniqsa, asab tizimi kasalliklari, stress va uyqusizlikni davolashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu o‘simlikni sanoat miqyosida yetishtirish va urug‘chiligi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Urug‘larning past unuvchanligi, agrotexnik talablarning to‘liq bajarilmasligi, tuproq va iqlim sharoitiga nisbatan sezuvchanlik kabi omillar valeriana hosildorligi va sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, dorivor mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasining ilmiy asosda tashkil etilishi, xomashyoning sifatli va ekologik toza bo‘lishini ta‘minlash dolzarb masalalardan biri

hisoblanadi. Mazkur maqolada valeriana o‘simligini urug‘ orqali yetishtirish, bu jarayonda duch kelinadigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari hamda dorivor mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Shu orqali ilmiy asoslangan yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, valeriana o‘simligini yetishtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko‘zda tutiladi.

### **Asosiy qism.**

Valeriana (*Valeriana officinalis*) o‘simligi o‘zining tinchlantiruvchi, spazmolitik va yurak faoliyatini tartibga soluvchi xususiyatlari bilan qadimdan xalq tabobatida, bugungi kunda esa ilmiy tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Ushbu dorivor o‘simlikning dorivor qismi – uning yer ostki organlari, ya‘ni ildiz va ildizpoyalari. Shulardan olinadigan ekstraktlar, damlamalar va tabletkalar asab tizimini tinchlantiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Bu xususiyatlar valerianani sanoat miqyosida yetishtirishga bo‘lgan ehtiyojni orttiradi. Valeriana o‘simligini urug‘ orqali ko‘paytirish eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biridir. Biroq, urug‘ yetishtirishda qator muammolar mavjud. Eng asosiy muammo – urug‘larning past unuvchanligi va tez nobud bo‘lishi. Valeriana urug‘lari yengil, mayda tuzilishga ega bo‘lib, qisqa muddat ichida unish qobiliyatini yo‘qotadi. Shuning uchun urug‘lar yangi yig‘ilganidan keyin darhol ekilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, tuproqning fizik-kimyoviy tarkibi, namlik darajasi va harorat ham urug‘larning unishiga bevosita ta‘sir qiladi. Urug‘chilikda optimal sharoit yaratish uchun unumdor, yaxshi ishlov berilgan, yumshoq va nam tuproqlardan foydalanish muhimdir. Valeriananing agrotexnikasi o‘ziga xos bo‘lib, ekish chuqurligi 1–1,5 sm atrofida bo‘lishi kerak. Urug‘lar satxiy ekiladi, ko‘chatlar 18–22°C haroratda 2–3 haftada unib chiqadi. Yaxshi natijaga erishish uchun parvarishlash jarayonida tuproqni muntazam yumshatish, begona o‘tlarga qarshi kurashish, sug‘orish va o‘g‘itlash ishlariga e‘tibor qaratish zarur. O‘simlikning ildizpoyalari ikkinchi yildan boshlab dorivor xom ashyo sifatida yig‘ib olinadi. Dorivor mahsulotlar ishlab chiqarishda valeriana ildizining kimyoviy tarkibi asosiy rol o‘ynaydi. Uning tarkibida valerian kislotasi, izovalerian kislotasi, efir moylari, alkaloidlar va boshqa biologik faol moddalar mavjud. Bu moddalar valeriana ekstrakti tarkibida tinchlantiruvchi, yurak faoliyatini me‘yorga soluvchi va uyquni yaxshilovchi xususiyatlarni beradi. Ekstraktlar asosan etanol yoki suvli eritmalar yordamida olinadi va dorivor preparatlar, damlamalar, tabletkalar yoki kapsula shaklida tayyorlanadi. Mahsulot sifatini ta‘minlash uchun xom ashyo ekologik toza hududlardan yetishtirilishi va GOST hamda farmakopeya talablariga javob beradigan holda qayta ishlanishi lozim. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash – masalan, vakuumli quritish, mikrokapsulyatsiya va

biokimyoviy standartlashtirish usullari – dorivor mahsulot sifatini oshirishda muhim omildir. Umuman olganda, valeriana o‘simligini urug‘chilik orqali ko‘paytirish va undan dorivor mahsulotlar tayyorlashda ilmiy yondashuv, agrotexnik tadbirlarning to‘g‘ri tashkil etilishi va zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi yuqori sifatli xom ashyo olishning muhim omillaridandir.

### **Xulosa:**

Valeriana o‘simligi nafaqat xalq tabobatida, balki zamonaviy farmatsevtikada ham muhim dorivor manba sifatida e‘tirof etilgan. Ushbu o‘simlikni urug‘ orqali yetishtirish jarayoni o‘ziga xos agrotexnik yondashuvlarni talab qiladi. Urug‘larning past unuvchanligi, iqlim va tuproq sharoitlariga sezuvchanligi, parvarishlashdagi xatolar hosildorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, urug‘chilikni ilmiy asosda tashkil etish, yangi agrotexnologiyalarni qo‘llash va optimal muhitni yaratish asosiy vazifalardan biridir. Valeriana ildizidan olinadigan ekstrakt va preparatlar inson salomatligi uchun foydali bo‘lib, ayniqsa asab tizimini tinchlantirishda keng qo‘llaniladi. Dorivor mahsulotlarning sifatini oshirish uchun esa xom ashyoning ekologik tozaligi, to‘g‘ri yig‘ib olinishi, qayta ishlanishi va saqlanishi muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-amaliy izlanishlar asosida yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish va mavjud muammolarga yechim topish orqali yuqori sifatli va samarali valeriana mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jo‘rayev Sh., Jo‘rayeva N. Dorivor o‘simliklar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
2. Karimov A. A., Salimov N. M. Farmakognoziya: dorivor xomashyolar. – Toshkent: O‘zDITI, 2019.
3. Qurbonov S., Mamatqulov A. Dorivor o‘simliklar bilan davolash. – Samarqand, 2021.
4. Nuriddinov A. M. O‘simlikshunoslik asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018.
5. Nuriyeva M. Z., Zokirova G. R. Dorivor o‘simliklarning biologik faol moddalari. – Toshkent, 2020.
6. Axmedova D. A. Farmatsevtik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2022.
7. Islomov N. R. Valeriana officinalis o‘simligining dorivor xususiyatlari va farmakologik qo‘llanilishi // “Yosh olimlar forumi” – 2023.

8. Gulyamov Sh. A. Fitoterapiya asoslari. – Toshkent: TTA nashriyoti, 2017.
9. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants. Volume 1. – Geneva: World Health Organization, 1999.
10. <https://www.sciencedirect.com> – Valeriana officinalis: pharmacological properties and clinical applications (ilmiy maqola, 2023-yil)

